15.	Туманнинг ҳар бир маҳалласида **"Жиноят ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси куни"** тадбирларини ўтказиш тўғрисида туман маҳалла фуқаролар йиғинларининг ҳисоботини эшитиш	I-ярим йиллик давомида	Ички ишлар бўлими, Туман прокуратураси, Ёшлар агентлиги, Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими, туман ҳокимлиги
16.	Диний экстремизм ғоялари таъсирига адашиб тушиб қолган фуқароларни ижтимоий реабилитация қилиш ва уларни соғлом ҳаётга қайтариш тизимини янада такомиллаштириш юзасидан амалга оширилаётган чоралар натижадорлигини таҳлил қилиш	I-ярим йиллик давомида	Ички ишлар бўлими, Туман прокуратураси, Ёшлар агентлиги, Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими, туман ҳокимлиги
II. Бўлимнинг 2022 йил I-ярим йиликкда белгиланган устувор вазифаларни амалга ошириш бўйича кўридаётган чоралар натижадорлиги таҳлили			
17.	**Тумандаги 60 та** маҳалла фуқаролар йиғинларида хотин-қизларнинг бандлигини таъминлаш, меҳнат шароитларини яхшилаш, хотин-қизларни, айниқса, қишлоқ жойлардаги ёш қизларни оилавий ва хусусий тадбиркорликка, ҳунармандчиликка кенг жалб этишни ҳар томонлама манзилли қўллаб-қувватлаш юзасидан амалга ошираётган ишларни таҳлил қилиш.	Апрел	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, туман бандлик бўлими, туман савдо-саноат палатаси, тижорат банклари
18.	Жорий этилган хотин – қизлар билан ишлашнинг янги тизими **"Аёллар дафтари"га киритилган хотин – қизларнинг муаммолари билан ишлаш** борасида амалга оширилаётган тадбирлар	Май	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, туман бандлик бўлими, туман савдо-саноат

Т/р	Устувор вазифалар, ўрганиладиган масалалар мавзулари	Бажариш муддати	Масъул ижрочилар
	самарадорлигини таҳлил қилиш.		палатаси, тижорат банклари
19.	**Оғир ижтимоий аҳволга қолган, шу жумладан оилавий муаммолар ва зўрлик ишлатишига дуч келган оилалар** билан ишлашда жойлардаги Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган шахсларни реаблитация қилиш ва мослаштириш ҳамда ўз жонига қасд қилишнинг олдини олиш марказининг бу борада олиб бораётган ишларини таҳлил қилиш	Июнь	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, туман бандлик бўлими, туман ички ишлар бўлими
20.	Оилавий ажримларнинг олдини олиш бўйича Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими томонидан амалга оширилаётган ишларни маҳалла фуқаролар кесимида таҳлил қилиш.	I-ярим йиллик давомида	Туман Ички ишлар бўлими, Мусулмонлар идорасининг туман вакиллари, Аҳоли бандликка кўмаклашиш бўлими, Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими
21.	1. Тумандаги 60 та маҳалла фуқарорлари йиғинлари ҳудудларида "Темир дафтар"га кирган оилалар билан гаплашиб, тадбиркорлик қилмоқчи бўлганларини рўйхатини шакллантириш. 2. Шакллантирилган рўйхат асосида ҳар бир камбағал оиланинг тадбиркорлик йўналаши бўйича лойихаларни ишлаб чиқиш ва "Ҳар бир оила тадбиркор" дастури дирасида кредитлар ажратиш	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, Бириктирилган ишчи гуруҳи аъзолари, маҳалла раислари ва сектор котиблари, тижорат банклари рахбарлари
22.	"Темир дафтар"га кирган оила аъзоларини доимий ишга жойлаштириш орқали бандлигини таъминлаш. Ишга жойлаштириш истагини билдирган фуқароларни салоҳиятли тадбиркорлик субъектларига бириктириб, ишга жойлаштириш чораларини кўриш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, Бириктирилган ишчи гуруҳи аъзолари, маҳалла раислари ва сектор котиблари, тижорат банклари рахбарлари
23.	"Темир дафтар" рўйхатига кирган оилалардан жамоат ишларида мехнат қилиш ҳоҳиши борлар руйхатини шакллантариш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, Бириктирилган ишчи гуруҳи аъзолари, маҳалла раислари ва сектор котиблари, тижорат банклари рахбарлари
24.	Уйдан ташқарида ишлаш имкони бўлмаган фуқароларни зарур дастгоҳлар	I-ярим йиллик	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш

Т/р	Устувор вазифалар, ўрганиладиган масалалар мавзулари	Бажариш муддати	Масъул ижрочилар
	(тикув машинаси, пайвандлаш ускунаси ва бошқалар) билан таъминлаб, кооперация усулида маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ташкил этиш орқали уларнинг бандлигини таъминлаш.	давомида	бўлими маъсул ходимлари, Бириктирилган ишчи гуруҳи аъзолари, маҳалла раислари ва сектор котиблари, тижорат банклари рахбарлари
25.	Тумандаги аҳолининг камбағал ва кам таъминланган қатлами қарамоғида мавжуд томорқа ерларидан самарали фойдаланишни ташкил этиш. Бунда, томорқаларни кўчат ҳамда уруғлик билан таъминлаган ҳолда эртаки ва ўртаки экинларни экилиши таъминлаш, ҳамда иссиқхоналар ташкил қилиш орқали етиштирилган маҳсулотдан даромад олиш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, Деҳқон фермерлар кенгаши, Аҳоли бандликка кўмаклашиш маркази маъсул ходимлари, МФЙ раислари
26.	Аҳолининг томарқа ерларидан самарали фойдаланиш орқали даромадни ошириш имкониятлари тўғрисида тушунтириш ва тавсиялар бериш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, Деҳқон фермерлар кенгаши, Аҳоли бандликка кўмаклашиш маркази маъсул ходимлари, МФЙ раислари
27.	"Темир дафтар"га рўйхатга киритилган оилаларни ўзини-ўзи банд қилиш мақсадида белгиланган йўналишларга субсидиялар ажратиш бўйича уч томонлама шартномалар тузиш ва шартнома асосида тегшили тўловларни амалга ошириш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, Деҳқон фермерлар кенгаши, Аҳоли бандликка кўмаклашиш маркази маъсул ходимлари, МФЙ раислари
28.	Туманда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ҳамда камбағалликни қисқартириш бўйича вазифалар ижросини таъминлаш орқали "Темир дафтар" га кирган оилаларни рўйхатдан чиқариш	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, Бириктирилган ишчи гуруҳи аъзолари, маҳалла раислари ва сектор котиблари
III.Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари, фармойишлари ва ҳукумат қарорлари ижросини мақсадли ўрганиш			
29.	**Тумандаги 60 та маҳалла фуқаролар йиғини** Ўзбекистон Республикаси Президентининги "Жамиятда ижтимоий-манавий	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, туман

Т/р	Устувор вазифалар, ўрганиладиган масалалар мавзулари	Бажариш муддати	Масъул ижрочилар
	муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлашни янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида" ги 2020 йил 18 февралдаги пф-5938-сон Фармони ижросини таъминлаш борасида амалга оширилган ишларни натижадорлигини ўрганиш.		бандлик бўлими, туман ички ишлар бўлими
30.	**Тумандаги 60 та маҳалла фуқаро йиғинларини** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Фуқаролар йиғинлари фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг рейтинг тизимини такомиллаштириш тўғрисида"ги 2020 йил 14 августдаги 785-сон қарори ижросини таъминлаш борасида амалга оширилган ишларни ўрганиш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, туман бандлик бўлими, туман ички ишлар бўлими
31.	"Аҳоли муаммолари билан ишлашда маҳалла институтининг мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғриси"даги 2019 йил 2 апрельдаги ПФ-5700-сон фармони ижросини таъминлаш борасида амалга оширилган ишларни ўрганиш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, туман бандлик бўлими, туман ички ишлар бўлими
32.	"Фуқаролар йиғинлари томонидан жисмоний ва юридик шахслардан ихтиёрийлик асосида жалб этилган маблағларни ва ҳомийлик хайрияларини шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғриси"даги 2019 йил 30 март 262-сон қарори ижросини таъминлаш борасида амалга оширилган ишларни ўрганиш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, туман бандлик бўлими, туман ички ишлар бўлими
33.	Фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) сайлови тўғрисидаги 2018 йил 15 октябрдаги ЎРҚ-499-сонли қонунининг ижросини таъминлаш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, туман бандлик бўлими, туман ички ишлар бўлими
IV. Туман бўлими томонидан белгиланган хизмат вазифаларидан келиб чиқиб амалга ошириладиган ишлар бўйича чора-тадбирларининг 2022 йил I ярим йилликда бажарилиши лозим бўлган назорат бандларини ижросини таъминлаш			
34.	Маҳалла раиси ва унинг ўринбосарлари ваколатларини кенгайтириб, уларга аҳоли муоммоларини бевосита ҳал қилиш имконини яратишимиз керак. Бунда маҳалла раисига маҳаллий кенгаш мажлисида кўрилиши мажбурий бўлган масалаларни киритиш ҳуқуқини бериш лозим. Бу	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, туман адлия бўлими, прокуратура, туман ички ишлар бўлими, туман ДСИ бўлими

Т/р	Устувор вазифалар, ўрганиладиган масалалар мавзулари	Бажариш муддати	Масъул ижрочилар
	орқали муаммоларни тезкор ҳал қилишга эришиш имконияти яратилади. Маҳалладаги долзарб масалалар ва аҳоли муаммолари бўйича фуқаролар йиғинлари раисларининг ахборатларини эшитиш мақсадида туман бўлимида "маҳалла соати"ни ўтказиш тизими йўлга қўйиш. Аҳоли муаммоларини бевосита ҳал қилиш бўйича маҳалла раиси томонидан маҳаллий Кенгашда кўрилиши мажбурий бўлган масалаларни киритиш амалиётини жорий қилиш.		
35.	Маҳаллада ишлаётган малакали ва ташаббускор кадрларни давлат идоралари раҳбарлик лавозимларига тавсия этиш тизими йўлга қўйилади. Тумандаги барча маҳалла фуқаролар йиғини ҳодимлари фаолиятини таҳлил қилиш. Миллий кадрлар заҳираси тизимини шакллантириш ва фаолият юритишш борасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни хатловдан ўтказиш. Белгиланган тартибда фуқаролар йиғини ходимларини кадрлар заҳирасига киритиш ва раҳбарлик лавозимларига тавия этиш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими бошлиғи, Ички ишлар бўлими.
36.	Давлат ва жамият бошқарувчида аёлларнинг ўрни ва мавқеини янада мустаҳкамлаш-ислоҳатларимизнинг энг устувор йўналишларидан биридир. Давлат ва жамият ҳаётида фаол иштирок этаётган, ўзи фаолият юритаётган соҳа ривожига муносиб ҳисса қўшаётган, оилага садоқатли ва фарзанд тарбиясидаги ибрати билан халқ эътиборига сазовар бўлаётган аёллар тўғрисида маълумотларни умумлаштириш. Улар иштирокида турли тадбир ва учрашувлар ўтказиш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари, маънавият ва маърифат маркази туман бўлими
37.	Туманда 8 та ижтимоий-иқтисодий ҳолати оғир бўлган маҳалла фуқаролар йиғинларида ободонлаштириш, ҳудуд инфратузилмасини ривожлантириш, қурилиш ва бунёдкорлик ишларини ташкил этиш	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари ҳамда тегиши маъсуллар
38.	Туманнинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи оғир, чекка ва чегара ҳудудида жойлашган **Қишлиқ, Истиқбол, Узун, Қоратепа, Майда, Боғобод, Обод, Довут** маҳаллаларида яшовчи аҳолини билан боғлиқ муаммоларини тўлиқ бартараф этиш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари ҳамда тегиши маъсуллар
39.	Ҳар бир хонадон ва кўчани ободонлаштириш,	I-ярим йиллик	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш

Т/р	Устувор вазифалар, ўрганиладиган масалалар мавзулари	Бажариш муддати	Масъул ижрочилар
	кўкаламзорлаштириш мақсадида маҳалла аҳолисини жалб этган ҳолда **“Ҳашар”** тадбирларини ўтказиш; Ижтимоий ҳимояга муҳтож бўлган (боқувчисини йўқотган, камбағал, ногирон ва ҳ.к) оилаларнинг уйларини, шу жумладан ёрдамчи хўжалик биноларини **(ҳожатхона, тандирхона, молхона, товуқхона** кабиларни) қуриш ва таъмирлаш. Туманда 8 та ижтимоий-иқтисодий ҳолати оғир бўлган маҳалла фуқаролар йиғинларида якка тартибдаги хонадонларнинг том қисмини шифер-тунука қопламалари билан қоплаш, хонадонларни **фасад қисмини таъмирлаш** ишларини олиб бориш, чиқиндилар учун махсус жой ажратиш ва махсус контейнерлар ўрнатиш чораларини кўриш.	давомида	бўлими маъсул ходимлари ҳамда тегиши маъсуллар
40.	Ҳар ҳафтанинг шанба куни маҳаллада **“Тозалик ва ободонлаштириш куни”** ташкил этиш ва ўтказиш. “Тозалик ва ободонлаштириш куни”да асосий ва ички йўллар атрофларини ободонлаштириш, зовур ва ариқларни ахлат ва лойқалардан, атрофини бегона ўт-ўланлардан тозалаш, дарахтларни оқлаш каби тадбирларни амалга ошириш. Ички йўллар атрофига мевали ва манзарали дарахт ҳамда гул кўчатлари ўтказиш, хонадонларнинг ҳар бирига камида **10 тадан** мевали ва қурилиш боп дарахт кўчатларини ўтказиш ишларини ташкил этиш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари ҳамда тегиши маъсуллар
41.	Шахсий томорқада чорвачилик, паррандачилик, асаларичилик, қуёнчилик, балиқчиликни ривожлантириш чораларини кўриш, Томорқадан самарали фойдаланишни имкони чекланган фуқароларга томорқа ер эгалари ҳамда уларга кўмаклашувчи ташаббускор фермер хўжаликларини бириктириш;	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари ҳамда тегиши маъсуллар
42.	Туманда **“Темир дафтар”, “Аёллар дафтари” ва “Ёшлар дафтари”**га киритилган фуқаролар учун субсидия ва имтиёзли кредитлар ҳисобига иссиқхоналар қуриб бериш, тегишли мутахассисларни бириктириш орқали мини кластерларлар ташкил этиш воситасида маҳсулотни етиштиришдан уни сотишгача бўлган жараён бўйича доимий амалий-услубий кўмак бериб бориш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари ҳамда тегиши маъсуллар
43.	8 та ижтимоий-иқтисодий ҳолати оғир бўлган маҳалла фуқаролар йиғинларига “Ҳар бир оила тадбиркор”, “Ёшлар келажагимиз” дастурлари, “Ҳунармандчиликни ривожлантириш”, Фермер, деҳқон	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари ҳамда тегиши маъсуллар

Т/р	Устувор вазифалар, ўрганиладиган масалалар мавзулари	Бажариш муддати	Масъул ижрочилар
	хўжаликларива томорқа ер эгаларини қўллаб-қувватлаш жамғармаси, Бандликка кўмаклашиш жамғармаси, Хотин-қизларни ва оилани қўллаб-қувватлаш жамоат фонди ҳамда маҳаллий ҳокимликлар ҳузуридаги жамғармалар ҳисобидан фуқароларга кредит олишда ёрдам кўрсатиш.		
44.	Туман сектор раҳбарлари иштирокида ўтказилаётган доимий сайёр қабулларда **"Маҳалла – сектор – Халқ қабулхонаси– маҳалла"** тизимини самарали жорий этиш, аҳоли муаммоларини аниқлаш ва уларни ижобий ҳал этиш.	I-ярим йиллик давомида	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими маъсул ходимлари ҳамда тегиши маъсуллар

Туман ҳокими ўринбосари Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими бошлиғи: Ш.Бекмурзаев

"TASDIQLAYMAN"
Qamashi tumani hokimi
_____B.N.Tog'ayev
"_____"_____2022-yil

Qamashi tumani hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhining 2022 yil I yarim yillikka mo'ljallangan
ISH REJASI

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar:
	I. 2022-yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish		
1.	Tuman hokimligi apparatining tarkibiy bo'limlari shtatlarini to'ldirish ishlarini tashkil etish.	2022 yil yanvar-iyun oylari	SH.Egamberdiyev, J.Buriyev
2.	Tuman hokimligi apparati, tuman tashkilot va muassasalarda mavjud vakant lavozimlarni tahlil qilish va rahbariyatga axborot berish.	Doimiy	SH.Egamberdiyev, J.Buriyev
3.	Tuman hokimligi apparatiga ishga yangi qabul qilingan xodimlarning shaxsiy yig'ma jildlarini shakllantirish, xodimlarning shaxsiy hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar, aniqliklar va qo'shimchalar kiritish.	Doimiy	SH.Egamberdiyev, J.Buriyev
4.	Yangi qabul qilinadigan xodimlarni tanlash, kelishish, o'rganish bo'yicha hujjatlarini tayyorlash va rasmiylashtirish	Doimiy	SH.Egamberdiyev, J.Buriyev
5.	Tumandagi rahbar nazorat ro'yxati va ma'lumotnomasini ko'rib chiqish va yangilash. Ular haqidagi ma'lumotlarni talab darajasida tayyorlab viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhiga taqdim etish.	2022 yil fevral oyida	Tuman hokimi o'rinbosarlari, SH.Egamberdiyev, J.Buriyev

6.	Tuman hududida nazoratga bo'lgan ehtiyoj asosida amaldagi va istiqboldagi nazorat zaxirasini shakllantirildi. Zaxiradagi nomzodlarni bosqichma-bosqich mo'ljallangan lavozimlarga tayyorlash bo'yicha yuqori lavozimlarga tavsiya etib borish.	Doimiy	Tuman hokimi o'rinbosarlari, SH.Egamberdiyev, J.Buriyev
7.	Nazoratni tanlash va ishga qabul qilishda ularning intellektual salohiyatini, ma'naviy fazilatlarini baholaydigan ochiqlik va oshkoralik tamoyillari asosida tanlov asosida tanlanishini tashkil etish.	Doimiy	Tuman hokimi o'rinbosarlari, Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi viloyat bo'linmasi, SH.Egamberdiyev, J.Buriyev
8.	Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha davlat xizmatchilarini muntazam o'qitish va bilimini oshirib borish bo'yicha rahbarlik lavozimlariga o'rganilayotgan zaxiradagi yoshlarni Davlat boshqaruvi akademiyasining Qarshi filialida kurslarga o'qitib borish.	Reja asosida	Tuman hokimi o'rinbosarlari, SH.Egamberdiyev, J.Buriyev
9.	O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligi va kasb bayramlari munosabati bilan mamlakatimizning sanoat, qishloq va suv xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa sohalari, xotin-qizlar, yoshlar vakillari, jamoat tashkilotlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarda ko'p yillardan buyon samarali mehnat qilib tuman faollarini davlat mukofotlari, ko'krak nishonlariga taqdim etish yuzasidan hujjatlari tayyorlash.	2022 yil yanvar-iyun oylari	Tuman hokimligi, SH.Egamberdiyev, J.Buriyev
10.	Tuman hokimligi bo'lim va guruhlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 yanvardagi "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori talablari asosida xujjatlarni yagona tizimda to'liq hisobga olish, ularning bajarilishini tahlil qilish va nazorat qilish yuzasidan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.	Doimiy	Tuman hokimining o'rinbosarlari, SH.Egamberdiyev, J.Buriyev

11.	O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat va viloyat hokimi qaror va farmoyishlarining ijrosi haqida ma'lumotlarni viloyat hokimligiga belgilangan muddatlarda taqdim etilishni nazorat qilish.	Har chorak yakuni	SH.Egamberdiyev, J.Buriyev
12.	Saylov komissiyasining yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va uchastka saylov komissiyalari a'zolari tarkibini ko'rib chiqish.	2022 yil fevral oyi	SH.Egamberdiyev, J.Buriyev
13.	Saylov uchastkalari jihozlarini xatlovdan o'tkazib, navbatdagi saylovda zaruriy ehtiyojini aniqlash.	2022 yil fevral oyi	SH.Egamberdiyev, J.Buriyev

Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari **SH.Egamberdiyev**

"Тасдиклайман"
Камаши тумани ҳокими
_____Б.Тогаев
2022 йил "10" январь

Туман ҳокимлиги бош юрисконсульти О.Алимардоновнинг томонидан 2022 йил давомида амалга оширилиши лозим бўлган ишлар
Р Е Ж А С И

Т.р	Амалга оширилиши лозим бўлган ишлар	Бажарилиши лозим бўлган ҳаракатлар	Муддати	Бажарувчи
1	Туман ҳокимлигининг ҳукукни қўллаш фаолиятида қонун устуворлиги ва қонунийликни таъминлашни ташкил этиш, ишлаб чиқилаётган (кабул килинаётган) норматив-ҳукукий ва бошқа ҳужжатлар лойиҳаларининг қонунчиликка мувофиклиги устидан назоратни олиб бориш;	а)Туман ҳокимига тақдим килинадиган буйруклар, фармойишлар, шартномалар ва юридик тусдаги бошка ҳужжатлар лойиҳаларини уларнинг конунчиликка мувофиклиги юзасидан экспертизадан ўтказиш ҳамда улар бўйича эътироз ва таклифлар бўлмаса, бошқа ходимларидан кейин виза қўйиш;	Доимий	О.Алимардонов
		б)жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳукук ва эркинликларини амалга оширишга таъсир этадиган туман ҳокими карорлари лойиҳаси юзасидан хулосалар бериш;	Доимий	О.Алимардонов
		в)кабул килинган карорлар, фармойиш ва бўйрукларнинг конунга мувофиклигини урганиб бориш;	Ҳар чоракда бир марта	О.Алимардонов Ш.Эгамбердиев
		г) туман ҳокимлигида қонун бузилишларини, уларнинг сабаблари ва шарт-шароитларини бартараф этиш юзасидан ҳокимга таклифлар киритиш, ушбу чора-тадбирларни амалга оширишда иштирок этиш;	Доимий	О.Алимардонов
		д)туман ҳокимлигига жисмоний ва юридик шахслардан келиб тушган таклифлар, ариза ва шикоятларни куриб чикиш ва ҳал этишда конунчиликка роия килиниши аҳволини урганиб таҳлил килиш.	Ҳар чиракда бир марта	О.Алимардонов Ш.Эгамбердиев
		ж)туман худудидаги тегишли тузилмаларга жисмоний ва юридик шахслардан келиб тушган таклифлар, ариза ва шикоятларни куриб чикиш ва ҳал этишда конунчиликка роия килиниши аҳволини урганиб таҳлил килиш.	туман ҳокимининг кўрсатмаси асосида	О.Алимардонов Туман ҳокими белгилаган шахс билан биргаликда
2	Туман ҳокимлиги ходимларининг ҳукукий маданияти ва ҳукукий саводхонлигини ошириш, уларга	Ўзбекистон Республикаси қонунлари, Олий Мажлис палаталарининг карорлари,	Ҳар ҳафтада	О.Алимардонов

	қабул килинаётган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмун ва аҳамиятини етказишда иштирок этиш;	Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорларини туман ҳокимлиги ходимлари эътиборига етказиш.	бир марта	
3	шартномавий-ҳуқуқий ва талабнома-даъво ишларини юритиш, туман ҳокимлигининг мулкий ва бошқа манфаатларини ишончли ҳимоя килинишини таъминлаш.	а)туман ҳокимлиги билан жисмоний ва юридик шахслар ўртасида низолар вужудга келганда, мустакил ёки бошқа таркибий тузилмалар билан биргаликда уларни судгача хал этиш чораларини кўриш; б) бошқа тузилмалар билан биргаликда туман ҳокимлиги томонидан шартномаларни тайёрлаш ва тузиш ишларида иштирок этиш, уларнинг конунчиликка мувофиклигини текшириш ҳамда шартномалар лойиҳаларига, агар эътироз ва таклифлар бўлмаса, виза қўйиш; в)шартномавий муносабатлардан келиб чикадиган ва бошқа низолар юзасидан даъво ишларини олиб бориш;	Доимий Доимий Доимий	О.Алимардонов О.Алимардонов О.Алимардонов

Туман ҳокимлиги
бош юрисконсульти

О.Алимардонов

"ТАСДИҚЛАЙМАН"
Қамаши тумани ҳокими
_____Б.Н.Тоғаев
"10" январ 2022 йил

Туман ҳокимлиги ахборот хизмати раҳбари – ҳокимнинг ахборот сиёсати масалалари бўйича маслаҳатчиси Н.Расуловнинг 2022 йил I ярим йиллик
ИШ РЕЖАСИ

№	Ўрганиладиган масалалар, кўзда тутилган тадбирлар	Ижро муддатлари	Масъул ижрочилар
1.	Туман ҳокими иштирокида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари ижросига бағишланган матбуот анжумани ўтказиш ва оммавий ахборот воситаларида ёритилишини таъминлаш.	1 чоракда февраль, март ойларида. Апрель ва май ойларида АОКА билан келишилган ҳолда	Н.Расулов
2.	Туман аҳолисини ишончли ахборотлар билан таъминлаш йўлида туман ташкилотлари иштирокида ахборотлар тайёрлаш	Доимий	Н.Расулов
3.	Туманда ижтимоий соҳада(соғлиқни сақлаш тизимида ва чекка ҳудудлардаги мактаблардаги шароитлар, спорт машғулотлари ташкил қилиниши) борасида олиб борилаётган ишларни доимий ОАВларда ёритиб бориш	Доимий	Н.Расулов

№	Ўрганиладиган масалалар, кўзда тутилган тадбирлар	Ижро муддатлари	Масъул ижрочилар
4.	Туман ҳудудидаги қишлоқларда олиб борилаётган ободонлаштириш ишларини кенг ёритиб бориш	Доимий	Н.Расулов
5.	Ҳоким ёрдамчилари билан ҳамкорликда ҳудудларда тадбиркорликни ривожлантириш, аҳолини ўзини-ўзи банд қилиш борасида тарғибот ахборотлар тайёрлаш	Доимий	Н.Расулов
6.	Туманда туризмни ривожлантириш борасида амалга ошириладиган ишларни ОАВларда ёритиб бориш	Доимий	Н.Расулов
7.	Фукаролар мурожаатлари юзасидан туман ҳокимлиги ва ташкилотлар билан ҳамкорликда жойларда ўрганишларда иштирок этиш ва ОАВда ёритиб бориш	Доимий	Н.Расулов
8.	Туманда ўтказиладиган байрам, маънавий-маърифий тадбирларни кенг ёритиб борилишини таъминлаш	Доимий	Н.Расулов

Қамаши тумани ҳокимлиги ахборот хизмати раҳбари –
ҳокимининг ахборот сиёсати масалалари бўйича маслаҳатчиси **Н.Расулов**

"TASDIQLAYMAN"
Qamashi tumani hokimi,
Bolalar masalari bo'yicha
tuman komissyasi raisi

_____ B.N.Tog'ayev
"5" Yanvar 2022-yil

Qamashi tumani hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basining 2022-yilga mo'ljallangan yillik
ISH REJASI

№	O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
	I. 2022-yilga belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish.		
1.	Bolalarni himoya qilish sho'basiga kelib tushayotgan xat va hujjatlarni ko'rib chiqilishini tashkil qilish, yozishmalarni amalga oshirish.	Doimiy	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi A.Abdulazizov, G'Buronov.
2.	Bolalarni himoya qilish sho'basi vakolat doirasiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash.	Yil davomida	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi A.Abdulazizov, G'Buronov.
3.	Yig'ilishlar kun tartibiga kiritiladigan masalalar bo'yicha materiallarning tayyorlanishini tashkil qilish.	Doimiy *(zarurat bo'lganda)*	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi A.Abdulazizov, G'Buronov.
	II. Bolaning huquqiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.		
4.	Vasiylik va homiylikka hamda farzandlikka olingan bolalarni yashash sharoitlarini o'rganib chiqish.	Doimiy	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi A.Abdulazizov, G'Buronov.
5.	Oilaviy bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalarning ahvolidan xabar olish va ular bilan alohida suhbatlar o'tkazish.	Yil davomida *(bir oyda ikki marotaba)*	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi A.Abdulazizov, G'Buronov.

№	O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
6.	Umumta'lim maktablari, kasb-hunar maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshqa ta'lim muassasalarida, madaniy-ma'rifiy muassasalarda, shuningdek voyaga yetmaganlar ishlayotgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ahvolini tekshirish.	Yil davomida	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi A.Abdulazizov, Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri M.Turopova, Tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri N.Abrayeva, Tuman Maktabgacha ta'limi bo'limi boshlig'I J.Norqobilov, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi rahbari S.Xudayqulova, Tumandagi tegishli korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari.
7.	Tumanda barcha kompyuter o'yingohlari, tungi klublar, kafe restoranlar, savdo do'konlarida voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash, ular o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik va boshqa zararli illatlardan himoya qilish borasida reyedlar tashkil qilish.	Yil davomida	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi, Milliy gvardiya tuman bo'limi, Bolalar masalari bo'yicha tuman komissyasining tegishli a'zolari
8.	Ta'lim muassasalarida ijtimoiy jihatdan xavfli va og'ir ahvolga tushib qolgan yoshlarga ularning tengdoshlari yoki bunday ahvoldan chiqa olmayotgan yoshlar bilan yakka tartibdagi muloqotlarni tashkil etish.	Yil davomida *(zarurat bo'lganda)*	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi A.Abdulazizov, G'Buronov.
9.	Vasiylikka, homiylikka va patronatga berilgan bolalarni o'qish va ishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida ularni tumanning ishlab chiqarish zavod va fabrikalariga sayohatlarni tashkil etish.	Doimiy *(bir oyda ikki marotaba)*	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi A.Abdulazizov, G'Buronov.

№	O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
10.	Bola huquqlari himoyasi yuzasidan bo'lib o'tadigan sud jarayonlariga ishtirok etish.	Yil davomida *(zarurat bo'lganda*	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi A.Abdulazizov, G'Buronov.
	III. Bolalarni himoya qilish sho'basi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.		
11.	Nazoratsiz va qarovsiz qolgan bolalarni aniqlash, ularning aniq hisobini yuritish, yetim va qarovsiz qolgan bolalarga vasiy yoki homiy tayinlash tizimini soddalashtirish maqsadida «Vasiylik» (https://mu.maktab.uz) yagona elektron axborot tizimiga kiritib borish.	Doimiy	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi A.Abdulazizov, G'Buronov.
12.	Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va yetim bolalarni ijtimoiy himoyalashning huquqiy asoslarini monitoring qilib borish.	Doimiy	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi A.Abdulazizov, G'Buronov.
	IV. Huquqiy targ'ibotga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.		
13.	O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi 139-son Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-son Farmonlari to'g'risida aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish.	Doimiy	Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi A.Abdulazizov, G'Buronov, Tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi rahbari A.Turaev.
14.	Bolalar masalari bo'yicha komissyasi tomonidan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish va davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etish.	Har yarim yillikda	Bolalar masalari bo'yicha tuman komissyasi

Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi mudiri **A.Abdulazizov**

"TASDIQLAYMAN"
Tuman hokimi o'rinbosari
B.Haydarov
2022-yil "12" yanvar

Qamashi tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisining 2022- yilga mo'ljallangan

ISH REJASI

t/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarilish muddati	Ijro uchun mas'ul
1.	O'zbekiston Respublikasining **"Davlat tili to'g'risida" va "lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"**gi Qonunlarini hayotga tadbiq qilish, ijrosi yuzasidan ishlarni amalga oshirish hamda joylarda mazmun mohiyatini tushuntirish.	1.O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risi"dagi Qonun hujjatlariga muvofiq ish yuritishni targ'ib qilish. 2.O'zbekiston Respublikasining "lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunini hayotga tadbiq qilish, ijrosi yuzasidan nazorat qilish.	Yil davomida	Tuman hokimning DTIYU bo'yicha maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi**"O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"** PF-5850-son va 2020-yil 20-oktabrdagi **"Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi PF-6084-son Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining davlat tiliga oid qarorlari mohiyatini tushuntirish, targ'ib qilish, ijrosini amalga	1. Davlat tiliga doir qonun hujjatlarini OAVlar orqali tushuntirish va targ'ibot qilish. 2. Davlat tiliga doir qonun hujjatlarini fuqarolarga, tadbirkorlik sub'ektlariga, idora va tashkilotlar xodimlariga tushuntirish bo'yicha shahar kesimida targ'ibot guruhlarini tuzish va ular faoliyatini nazorat qilib borish. 3. Hokimlik soatlarida davlat tili bilan bog'liq masalalarni muhokamaga kiritib borish.	har oyda fevral-mart oylari Har chorakda	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi

3.	2020-yil 20-oktabrdagi **"Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi PF-6084 –sonli Farmoniga asosan 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konseptsiyasisini 2020-2022-yillarda amalga oshirish Dasturi mazmun mohiyatini tushuntirish, targ'ib qilish hamda ijrosini amalga oshirish.	1. 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konseptsiyasisini 2020-2022-yillarda amalga oshirish Dasturi mazmun mohiyatini tushuntirish, targ'ib qilish hamda ijrosini amalga oshirish. 2.Ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini takomillashtirilishi, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish yuzasidan va tilning sofligini saqlash bo'yicha ishlarni olib boorish.	Yil davomida Har chorakda	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi
4.	Tumandagi barcha korxona va tashkilotlarda ma'naviy-ma'rifiy sohaga va davlat tiliga oid qonun hujjatlari hamda dasturlar va "Yo'l xaritalari"ning ijrosini ta'minlash , ish yuritish, shuningdek barcha idoralararo hujjatlar aylanishi davlat tilida bo'lishini to'liq ta'minlash va bu jarayonda davlat tiliga qat'iy amal qilishni nazorat qilish.	1.Davlat tilida ish yuritish tartibiga rioya qilinishini doimiy nazorat qilish. 2. Bu borada tashkilot rahbarlarining mas'uliyatini oshirish. 4. Monitoring natijalarini hokimlik soatlari, yig'ilishlarda muhokama qilib, tegishli choralar belgilab borish.	Yil davomida Har chorakda	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, , Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi
5.	Tuman hokimligi va uning tuzilmalarida, tashkilotlar hamda mahallalarda davlat tilida ish yuritish, geografik obyektlar va davlat tiliga oid qonun hujjatlariga rioya etish bo'yicha soha mutaxassislarini jalb etgan holda seminarlar, davra suhbatlari tashkil etish.	1. Joylarda o'tkaziladigan seminar va davra suhbatlarining mavzulari, rejasi, o'tkazish jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Seminar va davra suhbatlari belgilangan muddatlarda tegishli soha mutaxassislari, yozuvchi va shoirlar ishtirokida o'tkazilishini ta'minlash. 3. Seminar va davra suhbatlari reja asosida o'tkazilishini monitoringini yuritish, bajarilishi holati yuzasidan hokimga hisobotlar kiritib borish.	Yil davomida	Tuman hokimi maslahatchisi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi

6.	Davlat tilida ish yuritish va o'zbek tilini yanada rivojlantirish borasidagi ishlarda, ilmiy tadqiqotlarda va tashkiliy vazifalarni bajarishda yuqori ko'rsatkichga erishgan rahbar va mutaxassis kadrlarini, ilmiy xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritish	1. Tumandagi barcha idora va tashkilotlar xodimlarning davlat tilida ish yuritish va o'zbek tilini yanada rivojlantirish borasidagi ishlarini o'rganish, monitoring qilish. 2. Yaxshi natijalarga erishgan rahbarlar va xodimlarning mehnatini munosib rahbatlantirish bo'yicha takliflar tayyorlash. 3. Davlat tilini rivojlanishga munosib hissa qo'shgan rahbarlar hamda xodimlarni moddiy-ma'naviy rag'batlantirish.	Yil davomida har chorakda	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari,
7.	Tuman hokimligida davlat tili sohasidagi ustuvor vazifalarni bajarishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda ijrosini tashkil etish.	1. Davlat tili sohasidagi dasturlar va "Yo'l xaritalari"ni ijrosiga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlash. 3. Chora-tadbirlar rejasining ijrosini monitoringini yuritish, bajarilishi holati yuzasidan rahbarga hisobotlar kiritib borish. 4. Chora-tadbirlar rejasining ijrosi holatini yig'ilishlarida muhokama qilib, tegishli choralar belgilash.	belgilangan muddatlarda Har chorakda Yilda kamida ikki marotaba	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi
8.	Tashkilot va muassasalarda Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom (Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarori) mazmun-mohiyatini tushuntirish	1.Nizom mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlari olib borish. 2.2023-yil 1-yanvardan boshlab normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi haqida tushuncha berish.	Yil davomida	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi, Davlat xizmatlari agentligi tuman bo'limi

9.	Qamashi tuman hokimligi va tegishli tashkilotlarda xodimlar hamda boshqa tillarda so'zlashuvchi xodimlar uchun Qarshi davlat universiteti huzurida tashkil etilgan Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazlarida o'qishlarini tashkil etish.	1. Hokimlik va uning tuzilmalari xodimlarini o'quv mashg'ulotlariga jalb etish bo'yicha kadrlar bo'limi bilan kelishgan holda choraklik, yillik taqsimotini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Xodimlarni Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazlarida o'qishini tashkil etish. 3. Hokimlik va uning tuzilmalari xodimlarining o'qishini, davlat tilida ish yuritishi samaradorligini doimiy monitoring qilib borish va natijasi yuzasidan rahbarga tahliliy ma'lumotlar kiritib borish.	Yanvar Taqsimot asosida Har chorakda	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari
10.	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi **"Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"** 61-son qarori ijrosi yuzasidan chora-tadbirlar rejani ishlab chiqish va ijrosini nazorat qilish	1. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich o'tkazish maqsadida tizimda yuritilayotgan barcha ish hujjatlarini xatlovdan o'tkazish. 2.Hokimlik va tashkilotlarda kirill yozuvidagi ish hujjatlarini tegishli mutaxassis jalb etgan holda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tkazish choralarni ko'rish va amalga oshirilayotgan ishlar tahlilini olib borish. 3. Hokimlik apparat xodimlari ish hujjatlarini bosqichma-bosqich lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tkazish holatini o'rganish va natijalari yuzasidan rahbarga takliflar kiritib borish.	Reja asosida Har oyda Doimiy	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi

11.	Ma'naviy-ma'rifiy sohaga va davlat tiliga doir qonun hujjatlariga so'zsiz rioya etilishini va bu borada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy o'rganish, kamchilik va muammolarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	1.Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirih va davlar tili haqida qonun hujjatlari talablari so'zsiz rioya etilishini ta'minlash bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish. 2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirih va davlar tilini rivojlantirishga oid qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonlarida fikr-mulohazalar bildirish.	Reja asosida Har oyda	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi
12.	O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk shoir va mutafakkirlar **A.Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur** hamda O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri **Abdulla Oripov** va tavallud kunlari keng nishonlanadigan ijodkorlar ijodini targ'ib qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish , ijrosini nazorat qilish .	1.A.Navoiy va Bobur, A.Oripovning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, ularning o'lmas asarlarini keng targ'ib qilish. 2. Ta'lim muassasalari, mahallalar, harbiy qismlar va tashkilotlarda shoir va davlat arboblarining ijodiga bag'ishlangan adabiy-badiiy tadbirlar, she'rxonlik kechalari, davra suhbatlari, ijodiy uchrashuvlar tashkil etish. 3.Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda allomalar tavallud kunlarini keng targ'ib etish, ularning adabiy merosi namunalarini muntazam joylashtirib borish.	Yil davomida Fevral, Mart oylari	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi tuman ARM , Yoshlar agentligi tuman bo'limi, tuman XTB, tuman MTT
13	Ommaviy axborot vositalari, Internet saytlari, xususan, **"til.gov.uz"** saytida hamda ijtimoiy tarmoqlarning belgilangan kanal va guruhlarida davlat tiliga bag'ishlangan turkum materiallar berib borish, shuningdek, davlat tiliga doir yoritilgan materiallarni tahlil qilish hamda o'z munosabatini bildirish.	1.Tumanda davlat tiliga doir amalga oshirilgan ishlar bo'yicha axborotlar, ma'lumotlar hamda maqolalar tayyorlash va bosma davriy nashrlar, teleradiokanallar, internet saytlari, xususan, "til.gov.uz" saytida materiallar berib borish. 2. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda davlat tiliga doir berilgan materiallarni tahlil qilish va o'z munosabatini bildirish.	Yil davomida	Tuman hokimi maslahatchisi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi
14.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi **"O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi Qonuni(O'RQ-615-son)ga muvofiq** tumandagi tashkilot va mahallalarda **"O'zbek tili bayrami**	1. **"O'zbek tili bayrami kuni"**ni keng nishonlashga qaratilgan alohida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish. 2. Tashkil etiladigan bayram tadbirlarida taniqli tilshunos olimlar, shoir, yozuvchilarni taklif etish.	Sentabr-oktabr Oktabr	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Tashkiliy-nazorat guruhi

	kuni"ni keng nishonlash bo'yicha madaniy-ma'rifiy va boshqa tadbirlarni tashkil etish.	3. Tumanda til bayramini yuqori saviyada o'tkazish, OAVlarda keng yoritish.	Noyabr	rahbari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi
15.	O'zbekiston Respublikasining **"Reklama to'g'risida"**gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining "Tashqi reklama bozorini tartibga solish to'g'risida"gi 104-sonli qarori mazmun mohiyatini tushuntirish, ijrosi bo'yicha tumanda amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qilish.	1.Tashkilotlarda va tadbirkorlik subyektlariga O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni mazmun mohiyatini tushuntirish. 2. Vazirlar Mahkamasining "Tashqi reklama bozorini tartibga solish to'g'risida"gi 104-sonli qarori ijrosi bo'yicha tushuntirish olib boorish va ijrosi yuzasidan imlo me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash.	Yil davomida	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi
16.	Tuman hududidagi barcha tashqi yozuvlar, shu jumladan, peshlavhalar, reklama va e'lonlar, ko'rgazmali boshqa axborot matnlarining mazmuni davlat va jamoat manfaatlariga, axloq va odob normalariga muvofiqligini hamda davlat tilida bo'lishini ta'minlash.	1. Tuman hududidagi barcha tashqi yozuvlar davlat tilida yozilganligi va holatini o'rganish bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi ishchi guruhlarini tashkil etish. 2. Ishchi guruhlar tomonidan asosiy e'tibor qaratadigan yo'nalishlar bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va bajarilgan ishlar haqida ma'lumotlar berish shakli va tartibini belgilash. 3. Ishchi guruhlarning tegishli hudud bo'yicha amalga oshirilgan ishlarini monitoringini olib borish, zarur hollarda joyiga chiqib o'rganish. 4. Hududdagi barcha tashqi yozuvlar davlat tilida yozilganligi va holati bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlab rahbarga kiritish.	Yil davomida Har chorakda Har chorakda	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi, tuman adliya bo'limi
17.	Shahar va tuman hududidagi barcha joy nomlarining **"Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida"** O'zbekiston Respublikasining Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining **"Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida"**gi O'zbekiston	1. Tumandagi mavjud geografik obyektlarning ro'yxatlarini shakllantirish. 2. Tilshunos, filolog, toponimist va tarixchi olimlar, hamda tegishli manfaatdor tashkilotlarning malakali mutaxassislaridan iborat tarkibda ekspertlar guruhini tuzish va mavjud mahalla va ko'chalar nomlarini qonun talablariga mosligini	Yil davomida Tegishli	Tuman hokimi maslahatchisi, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari, Kadastr agentligi tuman filiali, Mahalla va oilani

	Respublikasining Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida" 295-son qarori va "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni me'yorlariga muvofiq bo'lishini ta'minlash.	tahlil qilish va qonun talablariga zid nomlari ro'yxatini tuzish. 4. Qonun talablariga zid bo'lgan joy nomini o'zgartirish bo'yicha takliflar fuqarolar yig'inida muhokama etilganidan so'ng tuman komissiyasida ko'rib chiqilishini tashkil etish. 5. Nomlari tegishli xalq deputatlari tuman Kengashlari qarorlari qabul qilingandan geografik obyektlarning nomlarini Davlat reyestriga kiritish uchun taqdim etish.	muddatlarda	qo'llab-quvvatlash boshqarmasi tuman bo'limi
18.	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-martdagi **"Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"** 144-son qarori ijrosi bo'yicha obyektlar nomlarining qonun me'yorlariga muvofiqligi yuzasidan ishlarni muvofiqlashtirish.	1.Davlat tili qoida va meyorlariga, milliy qadriyatlarga mos keladigan hamda obyektlarga qo'yish tavsiya etiladigan nomlar zahirasini shakllantirish. 2.Davlat xizmatlari agentligi tuman bo'limi va hamkor tashkilotlar bilan tadbirkorlik subyektlariga maslahat yordamlarini ko'rsatish. 3.Joy nomlari va tashqi yozuvlar matnini davlat tili qoida va meyorlariga muvofiq lingvistik ekspertizadan o'tkazish ishlarida ishtirok etish.	Yil davomida Tegishli muddatlarda	Tuman hokimi maslahatchisi, Davlat xizmatlari agentligi tuman bo'limi, hamkor tashkilotlar
19.	Tumanning **"QAMASHI"** gazetasida va sohaga doir telegram saytlarida, respublika va viloyatda nashr etiladigan nashlarda ma'naviy-ma'rifiy va o'zbek tiliga doir turli ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy, siyosiy mavzulardagi turkum ijodiy, publisistik, ilmiy maqolalar berib borish.	1. Tumanda ma'naviy-ma'rifiy va davlat tiliga doir amalga oshirilgan ishlar bo'yicha axborotlar, ma'lumotlar hamda maqolalar tayyorlash va berib borish. 2. Aholining, xususan yoshlarning ona tiliga bo'lgan hurmatini yanada oshirib borishga qaratilgan maqolalarni, ijodiy ishlarni nashr ettirish.	Belgilangan muddatda	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili haqida qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha hokim maslahatchisi

Qamashi tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi **N.Ro'ziyeva**